



Ingliz tilini “2x Speed & Listening Note” metodi bilan smart o’rganish

Mukumova Nodira Nuraliyevna

Surxondaryo viloyati Jarqo’rg’on tumani 5-umumta’lim

maktabi ingliz tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilining **listening** (tinglab tushunish) qismini yanada oshirish barobarida **concentration** (diqqatni jamlash), tezlikni oshirish orqali natija unumini oshirish hamda **listening note** (tinglab tushunishdagi muhim nuqtalar qaydi) yordamida **productive** (chet tilini o’zi ishlab chiqa olish, yodlab olingan gaplarni gapirmasdan) bo’la olishni o’rgatadi. Mualliflik metodida gaplar tuzilishini to’g’ri tashkil qilishni qayta-qayta amalda qo’llash, o’quv jarayonini yanada qiziqarliroq qilib o’quvchiga tushuntirish nazariy va amaliy yoritiladi. Ushbu metodning qimmatliligi shundaki, xalqaro darajadagi **IELTS, TOEFL** kabi chet tilini bilish sertifikatlarida yuqori natijalarni ko’rsatish uchun muhim omil bo’ladi va O’zbekistonimizni dunyo talablariga javob bera oladigan kadrlar bilan boyitish uchun keng yo’l ochadi.

Kalit so'zlar: Playback speed, diqqatni jamlash, tushungungacha eshitish, rewriting, tekshirish, breaking news.

Kirish. Bugungi partada o’tirgan yoshgina o’quvchi dunyo bo’ylab o’z tenglari bilan raqobatda bo’ladigan zamonda yashamoqdamiz. Ular bilan ravon muloqot qila olish, o’z iste’dodini to’liq yetkazish imkoniyati bilan ta’minlash uchun hukumatimiz tomonidan yordam tariqasida barcha kerakli sharoitlar yaratilyapti. Rivojlangan axborot-kommunikatsiya asri avlodlari sifatida ta’limdagi istiqbolli islohotlardan uzluksiz boxabarmiz



va minnatdormiz. Taklif etayotganimiz ushbu metod Ingliz tilining 4 muhim yo'nalishidan 3 tasi - **listening**, **writing** va **speaking** skill (ustalik)larini oshirishning eng samarali yo'lidir. Bunda audiomatn tinglovchi tushungunga qadar qayta-qayta qo'yib eshittiriladi. Tushunish deyilganda shu nazarda tutiladiki, o'quvchi minimal 70% matnni anglay olishi kerak va IELTS (International English Language Testing System) listening testida ham bu standart acceptable (7+) hisoblanadi. Metod nomida aks etgan "2x Speed" audiomatnni ijro etish tezligini anglatadi. Nima uchun normal mode (haqiqiy tezlik) emas? Birinchi yaxshi tomoni – o'quvchi ikki karra ko'p unumdorlik bilan ishlaydi: uch oyda olti oylik vazifani yakunlaydi. Ikkinchi afzalligi – qo'yilayotgan matnni o'tkazib yuborishlik qo'rquvi o'rganuvchining concentration (diqqat, e'tibor)ini oshiradi. Matndan tushunilgan ma'noni qayta yozish topshirig'i inson xotirasining yaxshiroq ishlashiga turtki bo'ladi. Anglangan ma'noni yozar ekan, til insonda produce (ishlab chiqish) bo'la boshlaydi. Bu esa bir paytning o'zida writing va speaking skillarini teng o'sishini ta'minlaydi, o'quvchining grammatik xatolari ham tobora kamayib boradi. Taqdim qilinayotgan metodni 8 – sinfdan yuqori o'quvchilarda qo'llash o'zining haqiqiy natijasini ko'rsatadi, quyi sinflar uchun playback speed (ijro tezligi)ni normal qilib foydalanish lozim. Natija bir haftadayoq yaqqol ko'zga ko'rinadi.

Unga bunday ta'rif bergan bo'lar edim: To'g'ri yo'l, Vaqt tejovi, iqtisodiy jihatdan eng tejankor, qisqa muddatda aniq natija, maqsadga eltuvchi, davlatimiz tomonidan bu til ommalashuvi uchun qilinayotgan islohotlarning samarasini beruvchi, barchaga birdek mos keluvchi dastur. Usul nomi "**2x Speed & Listening Note**" esa qo'llab kelayotgan tajribalarimizdan kelib chiqib olindi.

Asosiy qism. O'qituvchilar qo'lidagi eng yaxshi ushbu zamonaviy dastur bir paytning o'zida mustaqil o'rganuvchilar uchun ham zerikishni oldini oluvchi, tez o'sishni ta'minlovchi dasturdir. Bu nima degani? Bu yakka holda mustaqil(selfstudy) shug'ullanib til o'rganmochi bo'lganlar uchun super repititor! Bu metodning qanday qo'llanilishini darslik kitoblaridan va chet adabiyotlardan foydalangan holda ko'rsatamiz. Bir o'quvchini bu usuldan foydalangan



va uni qo'llamagan ketma-ket ikki haftasini solishtirsak, bu bilan shug'ullanayotgan odam to'xtamay ketayotgan avtostradaga chiqib qolgandek tutadi o'zini. Keling, birgalikda dasturdan foydalanib ko'ramiz va unga baho beramiz. Dastlabki materialni 5 – sinf darsligi - “GUESS WHAT” kitobi 85 – sahifasidagi 13 – mashqni olindi.

Barcha o'quvchilar mashqni bajarishga kitoblarini yopib qo'ygan holatda tayyor bo'lib joylashib olishgach, audiomatn qo'yib eshittiriladi. Har bir o'quvchi kamida 70% tushundim deb o'ylaganda matnni qo'yib berish to'xtatiladi. Aksariyat so'zlar bilan tanish bo'lganligi sababli 3 – 4 martada tinglash yetarli bo'ladi. Endi har kim matndan nima tushungan bo'lsa shuni yozish payti keldi.





O'quvchilar birdan to'la matnni emas uning qismlari uchun shu dasturni qo'llashsa bo'ladi.

1. They are in the rain forest now. A girl asked her friends why Capu is so excited. One of the rest said because he is in his home.
2. There is a quiz question "Where does annatto plant grow?". They were travelling. Jack saw a snake. They were terrified.
3. Snake bit Jack. They needed annatto plant to make a medicine with this plant. And Capu helped them. Jack recovered.
4. They said goodbye to one another.

O'qituvchi yozilgan matnlarda ma'no to'g'riligini tekshiradi. O'quvchilarga mana bu so'zni yodlashingiz kerak degandan ko'ra, ular o'zlari tilni qo'llash jarayonida so'z boyligiga ehtiyojini ko'rganliklari yaxshiroq turtki bo'ladi. O'rganuvchilar mashqni tamomlashgach kitobni ochib, uni qanchalik tushunganliklarini baholab olishlari mumkin.

READING

1. Read the texts once. Who starts school the earliest?

Tell us about your day...

Three young people from around the world describe a typical school day

A Onni – Finland

I get up at 8.00 am. For breakfast I have cereal and milk, with orange juice. After breakfast, I meet my friend, and we go to school together on the metro. Some days school starts at 9.00 but on other days at 10.00. We don't wear a uniform, and we call our teachers by their first name. We all get a free lunch at school – meat or fish with vegetables for the main course and fruit for dessert. School usually finishes at 2.45, and after that I go to music lessons or drama club. I have a snack in the evening before bed.

B Diego – Mexico

I wake up at 6.00 am, have a shower and put on my uniform. My breakfast is coffee, with bread and cheese or avocado. At 7.00 am, it's time to go to school. Sometimes I walk, but often my mum drives me. Classes begin at 8.00 and finish at 2.30. After that, I have my art class. I have lunch at about 3.00, and then I do my homework. I do it till 6.00 or 7.00. After that, I go on the internet, or watch TV with my family. I have dinner at about 8.00.

C Aban – Ghana

My mother wakes me and my sister up at 5.00 am. I water the plants in the garden, and my sister prepares the food for the evening meal. Then we put on our school uniforms and brush our teeth. We leave the house at 6.30 and buy breakfast on our way to school. Lessons are from 7.30 to 2.30 pm. Lunch is at school – today, it's rice and tomatoes. I like it, but my sister doesn't! After school I have my football class, and in the evening I watch TV before bed.

7 – sinf Prepare darsligining 20 – sahifasidagi uch o'quvchining kun tartibi berilgan matn parchalarini dastavval mavzuga bog'liq yangi so'zlarni o'rgangach, kitoblarga



qaramagan holda tinglaymiz. Shunday kattaroq matnlardan birini bajarsak, yoki har uchallasini taqqoslash orqali bir paytda yoritsak bo'ladi.


Onni is from Finland, gets up at 8.00 am, has breakfast with cereal, milk and orange juice. After it he goes to school with his friends where they do not wear a uniform. They don't start lessons at the same time every day, some days at 9 and the rest at 10. They have free lunch at school, which consists of the main course containing meat or fish and fruits for dessert. Their school finishes at 2.45, then he goes to art lessons like music and drama. He has a snack for dinner.

O'quvchining vizualizatsiyasini oshirish uchun doskaga mavzuga mos rasmlarni qo'yamiz:



Keyingi mashqni 9 – sinf Prepare darsligining student's book kitobining

45 – sahifasidagi 3 – mashqni bajarib, foydalanib ko'ramiz:



Name: *Across the water*

Start date: *28th of July*

Number of student places: *16*

Place: *Close to a river*

Cost: *£345*

For more information, phone:

05371255946



Chet adabiyotlaridan BBC Radio podcastlaridan unumli foydalanish mumkin.

https://t.me/bbc_radio_podcast/4189 manzilidagi podcastni namuna sifatida ko'ramiz: Playback speed sozlamalarini oynaning o'ng yuqori burchagidan sozlaymiz.

There are two people, Phil and Georgie, conversation is going between them. One asked the other, has he ever eaten doughnut. An hour later he had a headache. Phil thinks that the food we consume changes brain chemistry, effecting our mood and emotions. Human brain works whole


day and night even we sleep which needs fuel more than any other body parts to work correctly. They discuss brain & food contact. Average brain weigh is one-and-half kilos and human is one of the cleverest animal, Phil said. He asks, which is the mammal with its biggest brain, an Elephant, a dolphin and a whale?

Our brain makes up 2 percent of our total weight, however it uses 20% of all energy. Balanced diet gives crucial vitamins and minerals body needs. Balanced diet means proper type and amount of food, helps to stay intelligent and quick to notice.

Nutrient-rich foods are very expensive.

Batch cooking – cooking a lot of food at one time, saving by freezing to eat later.

Qolaversa, quyidagi kabi breaking news (tezkor yangilik)lar ingliz tilining up-to-date(zamonaviy) iste'moldagi holatini ko'rish imkonini yaratadi: "2x Speed and Listening Note" metodidan foydalanish asosiy natija tomon g'alabaga eltuvchi qurol hisoblanadi. Zero, tushunganingni yozib olganing o'zingnikidir.



Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, dunyo yangi bosqichga kirdi va u juda tez rivojlanmoqda. Har bir soha yangiliklarga tashna bo'lib turibdi. Albatta, ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. Biz bugun ommaga tanishtirgan "2x Speed & Listening Note" matni ham ta'lim tizimini tubdan isloh qiladi, deb da'vo qilolmasak-da, sidqi dildan metod qoidalariga qat'iy amal qilib shug'ullangan o'quvchining erishadigan pog'onasi, albatta, kamida bittaga baland bo'ladi. Sinfdagi do'stlari bilan birgalikda mashq bajarishi jarayonida yonidagi sinfdoshi bilan ham beixtiyor suhbatlashadi va bu o'z fikrini ravon ifodalash qobiliyatini yanada oshiradi. Rewriting(qayta yozish) davomida inson ongida kechayotgan fikrlarni tartiblashga o'rganadi va bu o'z-o'zidan nafaqat ingliz tili, balki barcha faoliyatida tartibni shakllantiradi. 2x Speed o'rganuvchining chelenj tariqasida ko'ringan mashg'ulotini a'lo darajada uddalagandan so'ng yanada kattaroq ishlar uchun ham qodir ekanini, kattaroq maqsadlar sari qadam tashlashda jadal harakat qilishi kerakligini ko'rsatadi.



Biz bu kamtarona metodimiz bilan butun bir tizimni o'zgartira olamiz deb hisoblamaymiz, balki o'quvchilarning ingliz tilini o'rganish mashaqqati shu metod orqali yengillashsa, biz maqsadimizga yetgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. GUESS WHAT Grade 5, Student's Book, Susannah Reed with Kay Bentley
2. PREPARE Grade 7, Joanna Kosta, Melanie Williams
3. PREPARE Grade 9, Joanna Kosta, Melanie Williams
4. BBC Radio Podcast, https://t.me/bbc_radio_podcast/4192